

BOLALAR FOLKLORI

Go'zal Yoqubovna Meylikova

Termiz davlat universiteti talabasi.

Ximmatova Go'zal

TerDU o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18033034>

Annotatsiya. Ushbu maqolada bolalar folklorining kelib chiqishi, rivojlanishi, turli qarashlar ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Bollar qo'shiqlari, aytishuvlar, qadimiy marosimlar hamda o'yinlarining bolalar tafakkuri va nutqida muhim tutgan o'rni tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: bolalar folklori, qo'shiqlar, allalar, aytishuvlar, "Solay solay" qo'shig'i, "Tug'di o'yini", "Chillik o'yini", "Sanamalar", "Lanka", "Yashirinmachoq", "Zanjir" o'yini, "Qistirma chandishlar", "Paqildoq" o'yini, "Yangi oy" qo'shig'i, "Qog'oz" o'yini, beshikka solish marosimlari.

Аннотация. В данной статье научно-теоретически анализируются происхождение и развитие детского фольклора, а также различные подходы к его исследованию.

Рассматривается важная роль детских песен, вербальных состязаний, древних обрядов и игр в формировании мышления и речи ребёнка.

Ключевые слова: детский фольклор, песни, колыбельные, словесные состязания, песня «Solay solay», игра «Tug'di», игра «Chillik», «Lanka», «Sanamalar», «Yashirinmachoq», игра «Zanjir», игра «Paqildoq», песня «Yangi oy», игра «Qog'oz», обряды укладывания в люльку.

Annotation. This article provides a scholarly and theoretical analysis of the origins, development, and various academic perspectives on children's folklore. It examines the significant role of children's songs, verbal duels, ancient rituals, and traditional games in shaping children's thinking and speech development.

Key words: Children's folklore, songs, lullabies, verbal duels, "Solay solay" song, "Tug'di" game, "Chillik" game, "Lanka", "Sanamalar", "Yashirinmachoq" (hide-and-seek), "Zanjir" game, "Paqildoq" game, "Yangi oy" song, "Qog'oz" game, cradle-placing rituals.

Bolalar folklori - folklorning qadimiy og'zaki ijodi sifatida e'tirof etiladi. Tarkibiy qismlari ertak, qo'shiq, o'yin, marosimlar, aytishuvlar, sanamalardan iborat. Chaqaloq tug'ilishi bilan u uchun turli marosimlar, jumladan, "Beshikka solish" kabi. Jabbor Eshonqulning fikricha, Hodi Zarif va To'ra Mirzayevlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, kabinetda o'tirib, nazariy adabiyotni titkilab, qancha urinmang folklorshunos bo'la olmaysiz. Ehtimol, boshqa sohada olim bo'lib yetishish mumkindir. Biroq, folklorshunos bo'lish uchun nazariyaning o'zi kamlik qiladi.

Folklorshunos o'zi amaliy jarayonlarni boshdan o'tkazmaguncha, olim bo'la olmaydi. Folklorshunoslikning murakkabligi ham shunda. Har bir millat o'z milliy libosi bilan ajralib turgani kabi o'z folklori, an'ana, urf-odatlari bilan ham farq qiladi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasidagi har bir viloyatda yashovchi aholining folklor janrlari, ijro uslublarning ham o'xshash tomonlari, hamda farqli tomonlari kuzatiladi. Masalan, Qashqadaryo viloyatida yangi tug'ilgan chaqaloqni beshikka belash urf-odati quyidagi jarayonlarni o'z ichiga oladi: Beshikka bolani solmasdan oldin "Bismilloh" deb, "Egasi keldi beshikni" deyishadi.

Qari yoshdagi momosi bolani qo'lga olib bolani chappa yotqizmoqchi bo'ladi ma'nosida "shunaqami"? deb yonadidagilardan so'raydi, ular "yo'q" deb javob berishadi, so'ng momo bolani yana boshqa xato tomonga qaratib "yotqizaymi" deydi, qolganlar "yo'q" deb javob berishadi, keyin momosi: "chapgami o'yingami" desa yonidagilar "o'nga" deb javob berishadi va chaqaloqni yotqizishadi yoki ostiga balo qazodan asrasin deb kulcha non ,pichoq va taroq qo'yishadi va belashadi, beshikka ko'zmunchoq ilib qo'yishadi yomon ko'zdan saqlasin degan ma'noda ushbu amallarni bajarishadi.

Beshik yopinchig'ini yopib momosi bir taxtani olib beshik ustidan sekingina urib taqillatadi: Otang urushsa qo'rqma, onang urushsa qo'rqma _ deb beshik ustiga qo'rg'oqni tashlab qo'yadi hamda beshik ustidan shirinliklar sochiladi. Chaqaloq onasiga non tishlatib bir bolaga uni berishadi, u bola yugurib qochadi yonidagi bolalar uni ortidan yugurishadi. Qirq kun chilla qilinadi va ona bola oldiga har kim kirib kiravermaydi ,chunki yomon ko'z ,kasalliklardan asrash uchun buni lozim deb hisoblashgan. Qo'shnilarga shirinliklar tarqatiladi.

Chaqaloqning tishi chiqsa rizqi chiqyapti deb yana qo'shnilarga bo'g'irsoq ,patir nonlar, shirinliklar tarqatiladi, keyin bola tik oyoqda tursa, onasi bolani o'sha zahoti ikki oyog'i orasidan kulcha nonni g'ildiratadi va bolani qo'lga nonni beradi. Bundan maqsad, bola yurgan yo'li ravon bo'lsin, to'siqlar uchramasin degan tushunchani ilgari surishgan. Toshkent viloyatida esa biroz farqli bo'lgan udummi ko'zdan qochirmaslik lozim. Beshik va chaqaloq uchun barcha zarur anjomlar chaqaloq onasining qarindoshlari tomonidan beriladi. Dasturxonga non, shirinliklar va o'yinchoqlar o'rab beriladi. Chaqaloqning ota-onasiga, uning bobo-buvilariga sovg'alar tayyorlanadi. Boy bezatilgan beshik, dasturxonlar va sovg'alar transport vositasiga qo'yilib, mehmonlar bilan birgalikda, karnay-surnay va nog'ora sadolari ostida chaqaloqning ota-onasi uyiga jo'natiladi. An'anaga ko'ra olib kelingan beshikni avval chaqaloqning bobosi o'ng yelkasiga qo'yadi, keyin o'g'lining o'ng' yelkasiga uzatadi, u esa beshikni chaqaloqning onasiga beradi.

O'tmishda mehmonlarning barcha niyatlari toza va yaxshi bo'lishi uchun ular yuziga oq un surar edilar. Mehmonlar mehmonxonaga yasatilgan dasturxonga taklif etiladi va mehmonlar ovqatlanib, sozandalarni tinglab, bazm qilib o'tirgan paytda qo'shni xonada kampirlarning ishtirokida bolani yo'rgaklash va beshikka solish marosimi o'tkaziladi. Marosim oxirida mehmonlar bolani ko'rish uchun oldiga kiradilar, unga sovg'alarni beradi va beshikning ustiga parvarda yoki qand sepadilar. Shu bilan marosim tugab, mehmonlar uy-uylariga qaytadilar{1}.

O'zbek xalqi buyuk tarixga ega bo'lgan xalqlardan biri hisoblanadi. Chaqaloqni sochi qaychi bilan qirqiladi, ammo orqa qismidan ozgina qoldirishadi. Bu "ergashcha" deyiladi ,buning ma'nosi uka singillari davomli ko'p bo'lsin, ergashib yursin degani, ko'proq bir yolg'iz farzandlilar qilishgan "Lanka"— o'zbek xalqining qadimiy harakatli o'yini bo'lib, asrlar davomida xalq sayillari va Navro'z bayramlarida muntazam ravishda o'ynalgan. O'yin uchun qo'yning bir parcha junli terisiga metall parcha mahkam bog'langan anjom ishlatiladi. Ushbu anjom bilan o'ynovchi shaxs "Tepkichi", o'yin asbobi esa "Tepki" deb ataladi.

Bugungi kunda O'zbekistonning deyarli barcha hududlarida Lanka o'yini sevib o'ynaladi.

O'yin maxsus joy yoki qimmat asbob talab qilmaydi, shuning uchun har qanday joyda o'ynash mumkin. Mustamlaka davrida ko'plab cheklovlarga uchragan bo'lishiga qaramay, u xalqimizning sevimli milliy o'yini sifatida davom etgan.

Buyuk olim va mutafakkir Abu Ali ibn Sino “Tib qonunlari” asarida inson salomatligini mustahkamlashda badantarbiyaning ahamiyati, xususan, odamning o‘z soyasi bilan shug‘ullanish o‘yinlarining foydali ekanini ta’kidlaydi.

Qadimgi tarixiy manbalarda yozilishicha, Lanka (Qarabtep) o‘yinlari ko‘proq chorvachilik bilan shug‘ullanuvchi hududlarda keng tarqalgan va turli millatlarda turlicha nom bilan mashhur bo‘lgan. Abu Ali Ibn Sino ta’kidlaganidek, Sog‘liqni saqlashning asosiy tadbiri badantarbiya bo‘ladi. Badantarbiya kishini chuqur va ketma-ket nafas olishga majbur qiluvchi ixtiyoriy harakatdir. Mo’tadil ravishda va o‘z vaqtida badantarbiya bilan shug‘ullanuvchi odam buzilgan xiltlar tufayli kelgan kasalliklarning va mijoz hamda ilgari o‘tgan kasalliklar tufayli keluvchi kasalliklarning davosiga muhtoj bo‘lmaydi. Badan tarbiyaning kuchli turiga maydonda qilinadigan kishining o‘z soyasi bilan olishish o‘yini (Qarabtep o‘yini) kiradi {2}. Qo‘shiqlar - bolalar ijodkorligi va ijrochiligida salmoqli mavqega ega bo‘lgan qo‘shiqlar tabiatiga ko‘ra lirik va hajviy mohiyatga molikligi bilan ajralib turadi {4.182B}.

Qashqadaryo hududida bolalar qo‘shiqlaridan (“Solay solay”, “Bordik”, “Zanjir” va hokazo) misol keltirish mumkin. “Zanjir” qo‘shig‘i kelib chiqishi ushbu o‘yin bilan bog‘liq. Bolalar qo‘l ushlashadi va birma-bir har bir bolaning qo‘lining tagidan qo‘l uzmay o‘tish kerak boladi va quyidagi qo‘shiqni aytishgan: Opa opa anjir, Darvozasi zanjir. Darvozani ochdik, Toqqa qarab qochdik. To‘g‘ning yo‘li ingichka, Boyning qizi devoshka. Devoshkani ushlanglar, Yuziga bitta mushlanglar - deb aytishadi va qaysi bola boshqalarning qo‘lining tagidan o‘tayotgan qolib ketsa, ya’ni qo‘shiq tugab qolsa, sekin uning yuziga qo‘llarini qo‘yib yubormasdan urishadi.

Ushbu o‘yindan bolalar ma’naviy hordiq chiqarishadi, jismoniy harakatlar natijasida bplaning chaqqonligi, tezligi, jamoa bo‘lib ishlash kabi fazilatlarini o‘rganishadi. Qolaversa, “Solay solay” o‘yini deyarli barcha viloyatlarda mashhur bo‘lgan bolalar folklori namunalaridan biridir. Solay solay kimga solay Sochi uzun qizga solay _ deb bolalar(asosan qizlar) doira shaklda turishgan.

Bolalardan biri qo‘lida bir toshni solib yashirib boshqalarining kaftiga qo‘lini tekizib yuqoridagi kuyni aytishgan. Qaysi qizga kelib qo‘shiq to‘xtasa tosh o‘sha bolaga beriladi va toshni solgan bola unga istagan shartini beradi. Shuningdek, “Tug‘di o‘yini” molni terisiga suv sepib, xo‘l bo‘lganidan foydalanib, yungini qo‘llari yordamida yig‘ib, birlashtirib to‘p shakliga keltirishgan, keyin yerga to‘rtta kichik chuqurlar qilishadi va bolalar uzoqda turib to‘plarni chuqurchalarga otib uni tushurishga harakat qilishgan.

Bundan tashqari, “Chillik o‘yini” — bolalarning qadimiy harakatli o‘yini bo‘lib, unda kichik cho‘p va uzun cho‘p ishlatiladi. O‘yin uchun yerga kichik chuqurcha qazilib, kichik cho‘p ustiga qo‘yiladi, keyin o‘yinchi uzun cho‘p bilan uni urib havoga uchiradi. Chillik qayerga tushsa, bolalar yugurib borib, birinchi yetib borgan bola ustunlikka ega bo‘ladi, masofa uzun cho‘p bilan o‘lchanadi. Chillik o‘yini bolalarda chaqqonlik kabi ko‘nikmalarini rivojlantiradi hamda jamoaviylik va raqobat madaniyatini shakllantiradi.

O‘zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.A. Karimov ta’kidlaganidek, “Xalqimizning madaniy qadriyatlari, ma’naviy merosi ming yillar mobaynida Sharq xalqlari uchun qudratli ma’naviyat manbai bo‘lib xizmat qilgan. Uzoq vaqt davom etgan qattiq mafkuraviy tazyiqqa qaramay O‘zbekiston xalqi avloddan-avlodga o‘tib kelgan o‘z tarixiy va madaniy qadriyatlarini hamda o‘ziga xos an‘analarini saqlab qolishga muvaffaq bo‘ldi” {3.3}.

Shu bilan birga, yangi oy chiqqanda nafaqat bolalar ,balki kattalar ham yomon kunlar, falokatlar daf bo'lsin deb : Oyni ko'rdik omonlik, Hech ko'rmaylik yomonlik, Keyingi yangi oy yillarida, O'ynab, kulib yuraylik _ deb chapak chalib kulishadi. Bu xalq orasida “Yangi oy qo'shig'i” degan nom bilan mashhur. “Bordik” o'yini, bolalar og'zaki ijodi namunasi sifatida mohiyatini yo'qotmagan.

Qaychi Bobong karnaychi Paqir Peshonang taqir Baqaloq Ichi to'la chaqaloq To'g'ri Orqangda bo'ri kabi jumalarni aytib ko'ngil ochar o'yinlar o'ynashgan. Yashirinmachoq (bekinmachoq) o'yinida kim ko'zlarini yumishini hal qilishning bir yo'li bo'lgan. Bir nechta bolalar qator bo'lib turishadi keyin bir bola ularni birma-bir sanaydi : Nemis chiqdi o'rmondan, Pichog'i bor karmonda. Yo olasan, yoqalasan, Ayt, kim bilan do'st bo'lasan _ deb sanab, kimga to'xtab qolsa, o'sha bola ko'zini yumadi. So'ng ko'zini yumgan bola shunday deydi: Yashirinmachoq oshga pichoq, Oshxonada nechta pichoq, O'ngacha sanayman, Yashirinmagan o'zidan ko'rsin_ deydi o'sha payt qolgan bolalar shoshib turli joylarga berkinib olishadi.

Berkinmachoqning eng yaxshi tomoni shuki, epchil, chaqqon, ziyrak va topag'onlikka o'rgatadi. “Paqildoq” o'yini - bolalar loydan kosa shaklini yasashadi va yerga zarb bilan otishadi kimlinikii baland ovozda yorilsa, sheriklarning loyidan biroz oladi va g'olib bo'ladi bundan tashqari, Qog'oz o'yini - qand qog'ozlarini yig'ib, uni g'ishtni tagiga qo'yib, g'ishtni tik qilib qo'yishgan, so'ng bolalar uzoqdan bir chiziq chizib, o'sha chiziqdan o'tmay, qo'llariga tosh olib g'ishtga otishgan faqat bir martadan, kim g'ishtni yiqitsa tagidagi qog'oz ham unga berilgan.

Folklor qo'shiqlari, janrlari,avvalo, bolalarni jismoniy yetuklikka, epchillikka, chaqqon harakatchanlikka, shuningdek, aqliy-intellektual rivojlanlantirishga xizmat qiluvchi asos hisoblanadi.

Buning isbotini yuqorida tahlilga tortilgan namunalarni misolida ko'rishimiz mumkin, shuningdek, folklor - xalq ma'naviyatini yuksaltirish, xalqimizning urf-odatlarini, an'analarini avloddan avlodga yetkazish va nafaqat katta yoshdagilar uchun, balki bolalar uchun ham yuksak darajada ma'rifat, madaniyat, qadriyatlarni his ettirmoqda desak mubolag'a bo'lmaydi. Shu bilan birga, bolalar folklori yoshlarga axloqiy va tarbiyaviy ahamiyat kasb etib, jamiyat uchun samarali vosita sifatida ulug'lanib kelayotgani sir emas, albatta. Shuni ta'kidlash lozimki, bugungi globalashuv davrida zamonaviy texnologiyalar takomillashgan bo'lsa-da, bolalar folklorini saqlash, davom ettirish, yanada rivojlantirish bugungi kunning eng muhim vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://www.toshmadaniyat.uz>
2. minsport.uz.
3. T.S.Usmonxodjayev, A.A.Pulatov. Milliy va harakatli o'yinlar. “Iqtisod-moliya”. Toshkent-2015.(3-4B).
4. T.Mirzayev, Sh.Turdimov, M.Jo'rayev, J.Eshonqulov, A, Tilavov. O'zbek Folklori. Toshkent.2020.(182-190B)..
5. Safarov O. Ozbek bolalar poetik folklori. – T.: Oqituvchi, 2010.(331-361B).